




Ministry of Investment,  
Industry and Trade of the  
Republic of Uzbekistan

Funded by  
the European Union

YEVROPA ITTIFOQINING SAVDOGA OID YORDAMI

## O'zbekistonning JSTga A'zo Bo'lishi Jarayoniga Ko'maklashish



### LOYIHANING ASOSIY JIHLTLARI VA MAQSADLARI

Yevropa Ittifoqi (YI) tomonidan moliyalashtirilayotgan besh yillik loyiha O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishligi orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha rivojlanish rejalarini qo'llab-

quvvatlashga qaratilgan. Loyihaning bevosita maqsadi mamlakatda JST qoidalariga mos keladigan savdo tartibini o'rnatishda O'zbekistonga yordam berishdan iborat.

### BENEFITSIARLARI

Loyihaning asosiy benefitsiarlari JSTga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralar olib borish uchun mas'ul bo'lgan Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (ISSV) hamda Idoralararo komissiya hisoblanadi. Bevosita benefitsiarlar safiga JSTga a'zo bo'lish jarayonida ishtirok etayotgan boshqa davlat muassasalari ham kiradilar.

Loyiha doirasida Savdo-sanoat palatasi, tarmoqlarga oid tadbirkorlik tashkilotlari, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar,

shuningdek jamoat tashkilotlari, shu jumladan ayollar, yoshlar va iste'molchilar huquqlarini himoya qiluvchi jamiyatlar bilan yaqin hamkorlik ko'zda tutilgan. O'zbekiston korxonalar, ayniqsa, kichik va o'rta korxonalar (KO'K), iste'molchilar, shu jumladan ayollar va yoshlar, shuningdek, ijtimoiy jihatdan zaif bo'lgan va marginal sharoitlarda hayot kechirayotgan fuqarolar ham loyihadan bevosita tarzda naf ko'radilar.

### MASALANING TARIXI

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoni 1994 yilda boshlangan, ammo o'sha paytda olib borilayotgan "o'zini o'zi ta'minlash" siyosati tufayli 2005 yilda to'xtatilgan. Shavkat Mirziyoyev Prezident etib saylanganidan ko'p vaqt o'tmay savdoni liberallashtirish va ichki savdo rejimini o'zgarishga qaratilgan keng ko'lami ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va o'zgarishlarni amalga oshirishni boshladi. Ushbu islohotlarni doirasida

JSTga a'zo bo'lish jarayoni qayta tiklandi va bu Tashqi savdo vaziri Xodjayev tomonidan 2018 yil mart oyida imzolangan va JST kotibiyatiga yuborilgan rasmiy murojatnomada o'z aksini topdi. 2019 yil iyul oyida O'zbekiston tashkilot a'zolari ko'rib chiqishlari uchun o'z tashqi savdo rejimi to'g'risidagi Memorandumni JSTga taqdim etdi. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha Ishchi guruh (IG) faoliyatini qayta tiklash uchun kerakli hujjatlar to'plami, jumladan tovar va xizmatlar bo'yicha boshlang'ich takliflar JST Kotibiyatiga



## LOYIHA DORASIDA MAQSAD VA TADBIRLAR

### 1. Hujjatlarni tayyorlashda va muzokara pozitsiyasini ishlab chiqishda axborot ko'magi

- JSTga a'zo bo'lish uchun hujjatlar (masalan, qonunchilikni isloh qilish rejasi, qishloq xo'jaligi bo'yicha yordamchi jadvallar, bojxona baholashi va SFS/STTni qo'llash uchun nazorat ro'yxati, tovarlar va xizmatlar bozoriga kirish bo'yicha takliflar)ni tayyorlashda ko'maklashish;
- O'tkazilayotgan muzokaralarga ko'maklashish maqsadida maslahat xizmatlarini ko'rsatish
- O'zbek delegatsiyalarining muzokaralarda (masalan, IG majlislarida) qatnashishiga ko'maklashish

### 2. Tarmoqlarga oid qonunlar va MXXlarni ishlab chiqish salohiyatni kuchaytirish

- Savdo siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, xususan JSTga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralar bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha maslahat berish
- Milliy savdo siyosatining manfaatlari va JSTga a'zo bo'lishga oid majburiyatlariga muvofiq ravishda tarmoqlarga oid qonunlar va MXXlarning mavjudlarini qayta ko'rib chiqish va yangilarini ishlab chiqish
- Savdo siyosatiga oid masalalar bo'yicha JSTga a'zo bo'lish bilan bog'liq tadqiqotlar olib borish, sharhlar tayyorlash, shuningdek tartibga soluvchi ta'sirni tahlil qilish

### 3. JSTga a'zo bo'lish jarayoni va tashkilotning qonunchilik bazasini chuqurroq anglash

- JSTga a'zo bo'lish bilan bog'liq mavzularda salohiyatni oshirish tadbirlarini tashkil etish
- JSTga a'zo bo'lish jarayonidan muvaffaqiyatli o'tgan qo'shni mamlakatlarga chiqib o'quv tadbirlarini tashkil etish
- Davlat xizmatchilari uchun savdo siyosati bo'yicha qisqa va/yoki uzoq muddatli treninglar o'tkazish

- O'zbekiston universitetlari/institutlari uchun o'quv modullarini ishlab chiqishda yordam berish
- JSTga a'zo bo'lish vaqtida va keyingi davrda idoralararo o'zaro aloqalarni yaxshilash bo'yicha treninglar o'tkazish

### 4. JSTning SFS/STT choralari va savdo-sotiqni soddalashtirish bo'yicha qoidalariga rioya qilish imkoniyatlarini kuchaytirish

- Savdo siyosatini ishlab chiqishga mas'ul bo'lgan shaxslarni JSTning SFS/STT bo'yicha Shartnomalarini qo'llashga tayyorlash
- Muvofiqlikni baholash organlarining tekshiruv tashriflari va sertifikatlashni xalqaro standartlar va tashqi bozor talablariga muvofiq ravishda o'tkazish bo'yicha salohiyatini oshirish
- Biznes sektorini sifatni boshqarish asoslari hamda tashqi bozorlarga chiqish bo'yicha talablar to'g'risida xabardor qilishda yordam berish
- Savdo tartiblarini osonlashtirish bo'yicha milliy qo'mitani tashkil etishga ko'maklashish

### 5. Manfaatdor tomonlar, shu jumladan ayollar uyushmalarining JSTga a'zo bo'lish to'g'risida xabardorligini oshirish

- Poytaxt va mintaqalarda xabardorlikni oshirish bo'yicha o'quv tadbirlari va seminarlar tashkil etish
- JSTga a'zo bo'lish bilan bog'liq bo'lgan islohotlar jarayoniga o'z hissalarini qo'shish salohiyatini tahlil qilish uchun tadbirkorlik tashkilotlari ro'yxatini tuzish
- Tadbirkorlik tashkilotlari uchun JST masalalari bo'yicha izohli qo'llanmalarni ishlab chiqish
- JSTga a'zo bo'lishning ayollar, yoshlar va qishloqlarda yashovchi odamlar uchun oqibatlarini va tashkilotga a'zo bo'lish imkoniyatlarini baholovchi tahlillarni amalga oshirish

Office in Geneva: Jean-Sébastien Roure, Senior Officer, Business and Trade Policy  
E-mail: [roure@intracen.org](mailto:roure@intracen.org)  
Telephone: +41-22 730 03 03  
Street address: ITC, 54-56, rue de Montbrillant, 1202 Geneva, Switzerland  
Postal address: ITC, Palais des Nations, 1211 Geneva 10, Switzerland  
Internet: [www.intracen.org/UZBWTO](http://www.intracen.org/UZBWTO) | [www.facebook.com/groups/uzbwto](https://www.facebook.com/groups/uzbwto)

Daria Karman, Project Coordinator  
[dkarman@intracen.org](mailto:dkarman@intracen.org)  
+41-22 730 04 15

Office in Tashkent: Adkham Akbarov, National Project Coordinator  
E-mail: [aakbarov@intracen.org](mailto:aakbarov@intracen.org)  
Telephone: +998 97 034 43 05

